



INNOVATSION TEXNOLOGIK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

G'iyosiddinova Maxmudaxon Alisher qizi

Qo'qon davlat universiteti assistent o'qituvchi

mahmudagiyosiddinova091@gmail.com

+998912013395

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion texnologik topshiriqlarni qo'llash orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Kreativ fikrlashni shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim jarayonida innovatsion topshiriqlardan foydalanish usullari va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda innovatsion texnologik topshiriqlarni qo'llashning samarali yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativ fikrlashni shakllantirishning nazariy asoslari, amaliy jihatlari hamda modelini takomillashtirish bosqichlari yoritilgan.

Аннотация: В статье рассматривается проблема развития творческого мышления будущих учителей начальных классов посредством использования инновационных технологических заданий. Анализируются педагогические условия формирования творческого мышления, методы использования инновационных заданий в образовательном процессе и их эффективность. В статье анализируются эффективные способы использования инновационных технологических заданий для развития творческого мышления будущих учителей начальной школы, а также освещаются теоретические основы, практические аспекты формирования творческого мышления и этапы совершенствования модели

Abstract: This article discusses the issue of developing creative thinking in future primary school teachers through the use of innovative technological tasks. The pedagogical conditions for the formation of creative thinking, methods of using innovative tasks in the educational process and their effectiveness are analyzed. The article analyzes effective ways to use innovative technological tasks to develop creative thinking in future primary school teachers. It also covers the theoretical foundations, practical aspects of the formation of creative thinking, and the stages of improving the model.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, innovatsion topshiriqlar, boshlang'ich ta'lim, pedagogik shart-sharoit, texnologik yondashuv, innovatsion texnologiyalar, pedagogik topshiriq, ta'lim modeli.

Ключевые слова: творческое мышление, инновационные задачи, начальное образование, педагогические условия, технологический подход, инновационные технологии, педагогическая задача, образовательная модель.

Key words: creative thinking, innovative tasks, primary education, pedagogical conditions, technological approach, innovative technologies, pedagogical task, educational model.

KIRISH

XXI asrda ta‘lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — ijodkor, mustaqil fikrlay oladigan, yangicha yondashuvlarga ega bo‘lgan pedagog kadrlarni tayyorlashdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari bolalarda tafakkurni rivojlantirishda yetakchi o‘rin tutadi. Shu sababli ularning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsion texnologik topshiriqlarni qo‘llash dolzarb masalalardan biridir.

Pedagogik kadrlarni tayyorlashda kreativ fikrlashni shakllantirish innovatsion texnologik topshiriqlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bunday yondashuv, avvalo, kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan, ijodkorlikka moyil, muammoli vaziyatlarga kompleks yondasha biladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zaruratidan kelib chiqadi. Shu sababli, o‘quv jarayonining mazmuniy asosini tashkil etuvchi dasturlar ham zamonaviy pedagogik talablarga javob beruvchi innovatsion texnologik topshiriqlar asosida ishlab chiqilishi lozim. [1,13-son]

Zamonaviy jamiyatda raqobatbardoshlik, innovatsion fikrlash, ilg‘or texnologiyalardan foydalanish madaniyati, shaxsiy va kasbiy o‘shish ehtiyoji har bir mutaxassisning asosiy sifatlariga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta‘lim tizimi oldida ham global me‘yorlar va milliy rivojlanish yo‘nalishlariga mos holda yangicha pedagogik yondashuvlarni shakllantirish, talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, amaliy faoliyatga tayyorlash kabi dolzarb vazifalar turibdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kreativ fikrlash — bu shaxsning psixologik jihatdan murakkab, ko‘p bosqichli intellektual faoliyati bo‘lib, u orqali inson mavjud muammolarga standartdan tashqari, original yondashuv asosida samarali yechimlar ishlab chiqishga qodir bo‘ladi. Bu jarayonda shaxs o‘zining aqliy salohiyati, ilgari o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarini noan‘anaviy yo‘llar bilan uyg‘unlashtirib, yangi g‘oyalar va qarorlar ishlab chiqadi. Guilford tomonidan ilgari surilgan divergent fikrlash nazariyasiga ko‘ra, kreativ fikrlash muammoga bir nechta yangi va muqobil yechimlar taklif eta olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv kreativ fikrlashni o‘lchash, baholash va rivojlantirishda nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Torrance esa kreativlikni diagnostika qilish maqsadida maxsus testlar tizimini ishlab chiqqan bo‘lib, bu vositalar o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va baholashda keng qo‘llaniladi. U o‘z tadqiqotlarida kreativ fikrlashni o‘quvchilar shaxsiy rivojlanishining muhim ko‘rsatkichi sifatida ko‘rib, uni ta‘lim tizimida asosiy omillardan biri sifatida tavsiflagan.

Vygotsky ijodiy fikrlashni insonning ijtimoiy faoliyati va atrof-muhit bilan o‘zaro ta‘siri asosida shakllanadigan psixologik hodisa sifatida izohlaydi. Unga ko‘ra, ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol hamkorlik

kreativlikni rivojlantirish uchun qulay psixologik muhit yaratadi. Shaxsning yuqori intellektual faoliyati, ayniqsa kreativ tafakkur, sotsiokultural yondashuv orqali shakllanadi, bu esa Vygotsky g‘oyalarining zamonaviy ta‘limda dolzarbligini belgilaydi. [4,24]

Bloom tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv maqsadlar taksonomiyasida ijodiy fikrlash eng yuqori intellektual faoliyat darajasi sifatida ko‘rsatilgan. Bu daraja o‘quvchidan nafaqat mavjud bilimlarni qayta ishlash, balki yangi g‘oyalarni yaratish, mustaqil fikrlash va innovatsion yechimlar ishlab chiqishni talab etadi. [5,85]

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi — bu o‘quvchilarda asosiy tafakkur shakllari, xususan kreativ fikrlashning poydevori shakllanuvchi davr hisoblanadi. Bu jarayonda o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va kreativ salohiyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining o‘zlarida kreativ fikrlashni shakllantirish, uni didaktik vosita sifatida qo‘llash malakasini egallashi ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Edward de Bono va Torrance tadqiqotlarida o‘qituvchining kreativ yondashuvi o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda asosiy omil sifatida ko‘rsatilgan. [8,42]

Jonassenning didaktik konsepsiyasida innovatsion texnologik topshiriqlar — bu o‘quvchilarni real hayotdagi muammolar asosida ijodiy yechim izlashga undovchi, metodik jihatdan maxsus tashkil etilgan ta‘limiy faoliyat shakllaridir. Ular zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yaratiladi va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga, kreativ yondashuv asosida qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi. Sawyer ham mazkur yondashuvni qo‘llab-quvvatlab, innovatsion topshiriqlar o‘quvchilar bilimini chuqurlashtirish, ularni faol va ijodiy ishtirokchi sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi.

Jonassenning muammoli o‘qitish konsepsiyasida, ayniqsa, real kontekstda qo‘llaniladigan topshiriqlar orqali o‘quvchilarni nafaqat faktlarni yodlashga, balki ularni tahlil qilishga, sabab-oqibat munosabatlarini anglashga va amaliy yechimlar ishlab chiqishga undaydi. Bu esa tanqidiy fikrlash, sistematik yondashuv va ijodiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. [6.24]

L.L. Shevchenko pedagogik ijodkorlikning ichki mohiyatini, shuningdek, uni faollashtirish va boshqarish mexanizmlarini chuqur o‘rganib, ta‘lim jarayonining murakkab, oldindan to‘liq bashorat qilib bo‘lmaydigan xususiyatlarini alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, “pedagogik faoliyatda har bir bosqichni oldindan aniq rejalashtirish imkonsiz” bo‘lib, o‘qituvchining muvaffaqiyatli ishlashi bola shaxsi rivojlanishining qonuniyatlarini chuqur tushunish bilan birga, ta‘lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan yangi vaziyatlarga moslashuvchan va ijodiy yondasha olish qobiliyatiga ham bog‘liqdir [9; 10-b.]

NATIJA VA MUHOKAMA

Bransford, Brown va Cocking tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ta‘limning yangi shakllari — interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish — o‘quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi isbotlangan. Innovatsion texnologik topshiriqlar esa

aynan shu turdagi vositalarning bir ko‘rinishi bo‘lib, ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va faol ishtirokini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Kozulin va uning hamkasblari pedagogik kreativlikni o‘qituvchining yangilikka ochiqqligi, dars jarayonida yangi metod va texnologiyalarni joriy qilishga tayyorligi bilan bog‘laydi. Bu esa o‘z navbatida, boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shvetsova tadqiqotlarida qayd etilishicha, innovatsion pedagogik topshiriqlar o‘qituvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirib, ularda yangilikni qabul qilish, o‘z ish faoliyatini muntazam takomillashtirishga bo‘lgan intilishni oshiradi. Ular nafaqat nazariy bilimni chuqurlashtiradi, balki o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv muhiti yaratishga xizmat qiladi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarning mazmuni shunday tuziladiki, u bo‘lajak o‘qituvchini o‘z kasbiy faoliyatida yangilik kiritishga, o‘z g‘oyalarini shakllantirib, amalda qo‘llashga o‘rgatadi. Bu jarayon bir necha bosqichda amalga oshadi:

1. Tahlil qilish – mavjud muammoni chuqur tushunish;
2. G‘oya ishlab chiqish – noodatiy yondashuvlarni aniqlash;
3. Amaliyotda sinash – taklif qilingan yechimni loyihalash va qo‘llash;
4. Baholash va takomillashtirish – natijani baholash va muqobil yechimlar izlash.

Tomlinson individual yondashuvning ta‘lim jarayonidagi ahamiyatini alohida ta‘kidlab, har bir o‘quvchining o‘ziga xos o‘rganish trektoriyasini inobatga olgan holda topshiriqlarni loyihalash zarurligini ilgari suradi. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini yanada chuqurroq shakllantirishga, ta‘limni shaxsiylashtirishga xizmat qiladi.

B.B. Ma‘murovning fikricha, kasbiy-pedagogik ta‘limda bunday topshiriqlarni joriy etish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlar majmuini yaratish zarur. [3; 10-11-b.] U ushbu sharoitlarni quyidagicha tasniflaydi:

- **Axborot sharoitlari** – o‘quv mazmuniga qo‘yiladigan zamonaviy talablar;
- **Shaxsga oid sharoitlar** – ta‘lim jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning faol hamkorligi, demokratik muloqot va o‘zaro ishonch muhitini shakllantirishga yo‘naltirilgan talablar;
- **Texnologik sharoitlar** – ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdagi uslub va vositalarni tanlash, innovatsion faoliyat turlari, treninglar va ilg‘or metodik yondashuvlar bilan bog‘liq talablar majmuasi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining innovatsion texnologik topshiriqlar asosida kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini belgilab oldik.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda innovatsion texnologik topshiriqlarning samaradorligini ta‘minlash, avvalo, o‘quv jarayonining puxta tashkillashtirilganligi va psixologik qulay muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayonda pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jihatdan

qaralganda, ta‘lim mazmuni va shakllarini zamon talablari asosida yangilash, kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni o‘quv jarayoniga kiritish muhim hisoblanadi.

Pedagog shaxsining kreativ o‘zini-o‘zi rivojlantirish strategiyalari, bir tomondan, kasbiy o‘zini takomillashtirish ehtiyoji bilan, boshqa tomondan esa, o‘z kuchli va zaif tomonlari to‘g‘risida reflektiv xabardorlik darajasi bilan belgilanadi. Bunday yondashuv kasbiy rivojlanishning subyektiv-ijodiy trayektoriyasini belgilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.[7; 143-b.]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion texnologik topshiriqlar:

- kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlaydi;
- o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi;
- amaliy faoliyatga tayyorgarlikni oshiradi;
- ta‘limda individual yondashuvni ta‘minlaydi;
- dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali

qo‘llashga tayyorlaydi.

Shu bois, kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni ishlab chiqish, ularni ta‘lim jarayoniga samarali integratsiyalash, bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlovining muhim tarkibiy qismi bo‘lib qoladi

Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonini tizimli tahlil qilish natijasida zamonaviy pedagogik ta‘limning asosiy tendensiyalari quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: a) mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish; b) oliy ta‘lim tizimida kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan marta yondashuvlarni qo‘llash; c) o‘qitishning jamoaviy shakllaridan individuallashtirilgan metodlarga o‘tish, shaxsning o‘zini rivojlantirish va kreativ qobiliyatlarni rag‘batlantirish; d) zamonaviy pedagogik ta‘limda insonparvarlikka yo‘naltirilgan yondashuvlarni ilgari surish; e) mahalliy va xalqaro ilmiy-pedagogik tajribalarni hisobga olgan holda innovatsion pedagogika va kreativ psixologiyaning ilmiy strategiyalarini amalga oshirish.

Tadqiqot jarayonida innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish jarayonini modellashtirish asosida quyidagi tamoyillar aniqlangan: a) kreativ fikrlashning shakllanishi va rivojlanishining birligi; b) tizimli va kompetensiyaviy yondashuvlar birligi; c) ta‘lim jarayonining kreativ yondashuvlar bilan boyitilishi; d) kreativ fikrlashni rivojlantirishning uzluksizligi va izchilligi; e) bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining umumlashtirilgan ta‘lim trajektoriyasi va individual ta‘lim yo‘nalishining o‘zaro bog‘liqligi; f) pedagogik tajriba asosida izlanish pozitsiyasini shakllantirish.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida innovatsion texnologik topshiriqlar orqali bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda tashqi (obyektiv) va shaxsiy-shartli (subyektiv) omillar aniqlangan. Tashqi omillar: pedagogik sharoitlar, uzluksiz ta‘lim jarayoni, olimlar va talabalar o‘rtasidagi hamkorlik, innovatsion boshqaruv. Shaxsiy omillar: professionalizm, shaxsning kreativ rivojlanishi, kognitiv pedagogik ehtiyojlar, kasbiy va shaxsiy fazilatlarining yig‘indisi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining yuqori malakali va raqobatbardosh pedagog kadrlar sifatida tayyorlanishida innovatsion texnologik topshiriqlar asosida ta‘lim imkoniyatlari, kreativ fikrlashni rivojlantirishning muhim shartlari, mezonlari va darajalari aniqlangan.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish modelining to‘rt komponentli sxematik ko‘rinishi quyidagi bo‘linmalardan iborat: 1) Maqsad bloki;

2) Metodologik blok;

3) Tashkiliy-faoliyatli blok;

4) Baholovchi-natija bloki.

Modelni amalga oshirish mexanizmi sifatida “Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida o‘z-o‘zini kreativ rivojlantirish” nomli namunaviy dastur ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida ishtirok etgan talabalar tomonidan individual rivojlanish dasturlari yaratilib, tajriba-sinovdan o‘tkazildi.

"Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi" fani bo‘yicha ma‘ruzalar va amaliy mashg‘ulotlarda innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish metodlari sifatida keystadi, muammoli ta‘lim, loyiha va kreativ metodlar ("Brainstorming", "Sinkveyn", "SCAMPER" texnikasi, "Tasodifiy stimul", "Role play") va interaktiv o‘yinlar, innovatsion texnologik metodlar ("De Bono", "Delayed image", "Venn diagrammasi", "O‘ylab ko‘r - nima bo‘ladi agar...?", "Konstruktiv tanqid", "Noodatiy fikrlaymiz", "Muammo maydoni") tanlab olindi va tajriba-sinov davomida samarali natijalarga erishildi. [10.43-b.]

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni / “Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi”, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli Qarori / “Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi”, 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son; 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.

3. Xoshimov K. “Pedagogik texnologiyalar va ularning ta‘lim jarayonidagi o‘rni”. – Toshkent, 2021.

4. Jalolov J. “Innovatsion ta‘lim texnologiyalari”. – Toshkent, 2020.

5. Begimqulov U. “Kreativ fikrlashni shakllantirish metodlari”. – Toshkent, 2019.

6. Foreign Sources: Torrance E.P. “Creativity and Education”. – New York, 2018.

7. O‘rinova N.M., Kadirova M.R., Djalalov B.B., Baydjanov B.X.. Pedagogik texnologiya. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona: “Poligraf super servis. 2022.

8. Азизхўжаев Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат / Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси, 2006. – 139 б.

9. Toxtaxodjayeva M.X. “Pedagogika nazariyasi”/ OTM uchun darslik.- Т.: “Iqtisod- moliya”, 2010. 136-140-b.